



SAMARQAND VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BOSHQARMASI BOSHIG'INING BUYRUG'I

Tender savdolarini tashkil etish hamda xaridlarni amalga oshirish bo'yicha doimiy ishlovchi komissiya tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi 456-sonli "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga dori-darmon, mebellar, orgtexnika, qurilish materiallari va boshqa jihozlar hamda xizmatlarni xarid qilish bo'yicha doimiy ishlovchi tanlov (tender) komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tanlov komissiyasiga:

- Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasida joriy ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan e'lon bo'yicha tanlovda ishtirok etgan pudrat tashkilotlari (yetkazib beruvchi)ning takliflarini o'rgangan holda, eng ma'qullari bilan shartnomalar imzolanishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonuniga asosan, "**Eng yaxshi takliflarni tanlash**" savdolarini o'tkazishda qonuniylikni doimiy nazoratga olish;

-tanlov shaffofligini ta'minlash va tanlov komissiyasiga topshirish vazifalari yuklatilsin.

-ro'yhatdan o'tkazilgan xarajatlar simetasida mablag'larni o'z vaqtida ta'minlash moliya shu'basi I.Holiqulov, T.Hamrayevlarga yuklatish:

-tuziladigan shartnomalar tendirlarini o'tkazish va tasdiqlangan shartnomalarni bajarilgan ishlarga asosan pudratchi tashkilotlarga mablag'larni chiqarish bosh hisobchi M.Xujayorov, O.Mamanovlarga yuklatish vazifalari topshirilsin.

3. Boshqarmaning Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash shu'basi (B.Qosimov) ushbu buyruqni boshqarmaning barcha xodimlariga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i v.v.b



R.Yuldoshev

Samarqand sh.
7-mart 2026-yil.

55-son

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab
ta'limi boshqarmasi boshlig'ining
_____2026 yildagi _____-son
buyrug'iga ilova

**Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasining tender savdolarini tashkil etish hamda xaridlarni amalga
oshirish bo'yicha doimiy ishlovchi**

KOMISSIYA TARKIBI

1. R.Yuldoshev – boshqarma boshlig'i v.v.b, Komissiya raisi
2. A.Boboqulov – boshqarma boshlig'i o'rinbosari, Komissiya a'zosi
3. M.Xujayorov – Buxgarteriya hisobi va davlat xaridlari shu'basi boshlig'i, bosh hisobchi v.v.b, Komissiya a'zosi
4. A.Xursandov – Ta'lim tashkilotlari infuratuzilmasini rivojlantirish va mulkidan samarali foydalanish bo'limi boshlig'i, Komissiya a'zosi
5. S.Nomirov – Kasaba uyushmasi boshlig'i, Komissiya a'zosi
6. A.Tursunov- Yuridik xizmat ko'rsatish sho''basi boshlig'i, Komissiya a'zosi
7. D.Akbayev – Xo'jalik ishlari mudiri, Komissiya kotibi